

HUDUDLARDA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISH HOLATI VA BARQAROR IQTISODIY O'SISHINI TA'MINLASH



Sapaev Maxsudbek Karimovich

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

maxsudbek.sapayev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada hudularda sanoat tarmoqlarini rivojlanish holati statistik ma'lumotlar asosida tahliliy o'rganilgan hamda sanoat tarmoqlari korxonalarining barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati va mazmuni yoritilgan. Shu bilan birga hududlarda sanoat tarmoqlarining rivojlanish holatiga ta'sir etuvchi omillarni bartaraf qilish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: hududiy sanoat tarmoqlari, barqaror iqtisodiy o'sish, yalpi ichki mahsulot, iqtisodiy islohotlar, tarkibiy o'zgarishlar, tarmoqlar diversifikatsiyasi.

СОСТОЯНИЕ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ СЕТЕЙ В РЕГИОНАХ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА

Аннотация. В статье на основе статистических данных аналитически изучено состояние развития отраслей в регионах, выделены важность и значение реформ, реализуемых для обеспечения стабильного экономического роста предприятий отраслей. При этом были высказаны предложения и рекомендации по устранению факторов, влияющих на развитие отраслей в регионах, и обеспечению устойчивого экономического роста.

Ключевые слова: региональные отрасли, устойчивый экономический рост, валовой внутренний продукт, экономические реформы, структурные изменения, отраслевая диверсификация.

DEVELOPMENT STATE OF INDUSTRY NETWORKS IN THE REGIONS AND PROVIDING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH

Abstract. The article, based on statistical data, analytically studies the state of development of industries in the regions, highlighting the importance and significance of reforms implemented to ensure stable economic growth of enterprises in the industries. At the same time, proposals and recommendations were made to eliminate factors affecting the development of industries in the regions and ensure sustainable economic growth.

Key words: regional industries, sustainable economic growth, gross domestic product, economic reforms, structural changes, industry diversification.

1. Kirish

Hududlarda sanoat tarmoqlarini ustuvor darajada rivojlantirish davr talabidir. Shu jihatdan, bugun aynan hududlarda sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishga bo'lgan e'tibor har doim hukumatning asosiy masalalaridan biridir. Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish borasidagi islohotlarni izchil davom sifatida oxirgi besh yilda sohaga tegishli bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mamlakatimiz taraqqiyoti borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan ilgari surilayotgan strategik rejalar respublikamizda sanoat tarmoqlarining barqaror va mutanosib ravishda o'sishini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar negizida raqobatdosh, eksportbop hamda import o'rmini bosuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilishiga, sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, texnologik yangilash va yirik sanoat korxonalarini yaratish kabi masalalarga asosiy urg'u berilmoqda. Bu kabi dolzarb va o'z yechimini kutayotgan masalalar bugungi kunning davr talabidir.

2. Adabiyotlar sharhi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Farmon mahalliy sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga ko'maklashuvchi yaxlit tizimning yaratilishi, shuningdek hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, sanoat sohasini rivojlantirishga oid ko'plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Zargarlik sanoatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan zargarlik sohasidagi ishlab chiqaruvchilar uchun kumush mahsulotini sotib olish borasida to'lovlarning muddatini uzaytirish kabi imkoniyatlar yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2021 yilda hududiy va respublika tarmoqlararo sanoat yarmarkalarini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorilarining qabul qilinishi tarmoq rivojiga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yilda 12-oktyabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-169-sonli Farmonining qabul qilinishi sanoat tarmoqlarini ustuvor darajada rivojlantirishga to'rtki bo'ldi.

Ushbu farmonda keltirilgan asosiy vazifalar sifatida aytish joizki, bugungi kunda mamlakatda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo'nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalg etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish hamda yirik tarmoqlarga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish maqsadida, davlat sanoat siyosatini amalga oshirish hamda sanoatning bazaviy tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha bir qator vazifa va funksiyalar Iqtisodiyot va moliya vazirligiga zimmasiga yuklanadi.

3. Tahlil va natijalar

Respublikamiz iqtisodiyoti va aholi bandligini ta'minlashda sanoat tarmoqlarining o'rni juda katta. Shuningdek, sohaga zarur shart-sharoit yaratish maqsadida so'nggi yillarda 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasini tashkil etildi, ularning infratuzilmasiga 10 trillion so'm yo'naltirildi. Sanoat tarmoqlaridan asosan: to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, charm, farmasevtika, elektr texnikasi kabi tarmoqlarni bugungi kunning "drayver" iga aylantirish uchun 3 milliard dollarlik moliyaviy resurslar ajratildi. Sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash uchun geologiya-qidiruv ishlari 3 barobar ko'paytirilib 600 tadan ziyod yangi kon zahiralari aniqlandi. Olib borilayotgan islohotlar natijasida so'ngi besh yilda sanoat korxonalari soni 2 barobar ko'payib, 100 mingtaga yetdi, ishlab chiqarish hajmi 1,4 baravarga ko'paydi.

Mamlakatimiz rahbari sanoat uchun yangi imkoniyatlar va qo'shimcha moliyaviy resurslar berilishini ta'kidladi. Birinchi imkoniyat – bank normativlari qayta ko'rib chiqilib, tijorat banklarida korxonalarga kredit ajratish uchun qo'shimcha 55 trillion so'm resurslar ta'minlanadi. Bu – bitta tumanda o'rtacha 20 million dollarlik investitsiyaga qo'shimcha manba, degani¹.

Ikkinci imkoniyat – 2023 yilda sanoat zonalari va yirik investitsiya loyihalari infratuzilmasi uchun 1,7 trillion so'm yo'naltiriladi. Shuningdek, "G'ijduvon" va "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonalari hududi kengaytiriladi. Qoraqalpog'iston va Qashqadaryoda "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining filiallari tashkil etiladi.

Uchinchi imkoniyat – 2023 yildan boshlab, iqtisodiy rivojlanishi orqada bo'lgan to'rtinchi va beshinchi toifadagi 60 ta tumanga 27 turdag'i soliq imtiyozi, subsidiya va preferensiyalar berilganidir.

To'rtinchi imkoniyat – gilamchilik, uy tekstili, charm va zargarlik tarmoqlari uchun taqdim etilayotgan yengilliklar. Unga ko'ra, 2023 yilda to'qimachilik loyihibalariga qo'shimcha 300 million dollar yo'naltiriladi. Charm-poyabzal sanoatida 200 dan ortiq turdag'i import xomashyo bo'yicha bojaxona imtiyozlari uch yilga uzaytiriladi. Zargar tadbirkorlarga xomashyoni chegirma bilan sotib olish imkoniyati hamda soliq, bojaxona va bank imtiyozlari beriladi.

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishslash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 655,8 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


¹ <https://president.uz/uz/lists/view/5810>



1-rasm. Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari²

Hudularda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (95 361,7 ming so'm), Toshkent shahrida (41 228,9 ming so'm) hamda Toshkent viloyatida (34 990,5 ming so'm) o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (18 011,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Hudularda sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 553,3 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (18,9 %), Toshkent viloyati (16,1 %), Navoiy viloyati (15,5 %), Andijon viloyati (11,2 %) hamda Farg'ona viloyati (5,6 %) hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Jizzax viloyatida (107,4 %), Andijon viloyatida (107,3 %) hamda Namangan (107,2 %) viloyatlarida kuzatildi.



2-rasm. Sanoatda yirik korxonalar bo'yicha ishlab chiqarish ko'rsatkichlari³


² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz

(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoati korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,2 trln. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 8,4 % ga to'g'ri keldi.

Hududlarda 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 553,3 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi.



3-rasm. Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)⁴

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,4 % ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 2,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 24,8 % (23,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 37,5 % (36,8 %), quyi texnologiyali 36,3 % (38,0 %) ni tashkil etgan.


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 22,8 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %) ga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,8 %) ni tashkil etdi.

Hududlarda 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 1 333,1 ming tonna avtomobil benzini (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,0 % ga ko'paygan),

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz

553,5 ming tonna kalava ip (5,5 % kamaygan), 263,0 mln. litr pivo mahsulotlari (21,0 % ga ko'paygan) hamda 1 128,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (35,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.



4-rasm. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'ati⁵

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdag'i suvlarni o'z ichiga oladi.

Hudularda 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 65 174,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

Hudularda 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,2 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 17 968,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

4. Xulosa va takliflar

Respublikamiz Prezidentimiz tomonidan ta'kidlangan dolzarb masalalar sifatida hudularda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisobiga, hududlarda 6 mlrd.dollarlik mahalliylashtirish loyihalarini amalga oshirish, hududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan 3 mingga yaqin loyihalarni vaqtida ishga tushirish masalalari belgilab berildi.

Hududlarda sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish borasidagi quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- hududlarda aholini ish bilan ta'minlash maqsadida yangi sanoat korxonalarini tashkil etish;

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz

➤ hududlarda sanoat korxonalarini diversifikatsiyalash va qo'shimcha tarmoqlar faoliyatini yo'lga quyish;

➤ hududlarda sanoat korxonalarini rivojlantirishga xorijiy investorlarni jalb qilish va ularga imtiyozlar berish;

➤ hududlarda kichik sanoat zonalari ko'lamenti kengaytirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida yaratilayotgan ushbu imkoniyatlar sanoat tarmoqlarining barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashdagi islohotlar istiqbolda o'zining amaliy natijalarini beradi.

5. Foydalanimanadabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'isida"gi РФ-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti birinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining ochilish marosimidagi nutqi. 2021 yil 24 mart. <https://president.uz/uz/lists/view/5077>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. Toshkent.

4. M.Yu.Isakov. "Korxona iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma.– T.: "Iqtisodiyot", 2017. 278 b.

5. Основы предпринимательской деятельности. Под ред. В.М.Власовой–М.: Финансы и статистика, 1995. С.127.

6. Экономика и статистика фирм. Учебник / Под ред. С.Д.Ильенковой. – М.: Финансы и статистика, 2001. С.128.

7. Зайцев Н.Л. Экономика промышленного предприятия. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2001. 308 с.

8. Экономика предприятия. Учебник/ Под ред. И.А.Сафонова. – М.: Юристъ, 2000. С.103.

9. Экономика предприятия. Учебное пособие/ Под общ.ред. А.И.Ильина. – М.: ООО «Новое знамя», 2004. С.82.

10. Сажина М.А., Чибриков Г.Г. Основы экономической теории. М., 1995. С.104.

11. <https://www.statista.com/statistics>

12. <https://lex.uz/ru/docs/6633676>

13. <https://president.uz/uz/lists/view/5810>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

